

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”

KAFEDRASI

SAYLOVA NARGIZA XUSNITDIN QIZI

**“NATYURMORT KOMPOZITSIYASI MURAKKAB BO`LMAGAN
NATYURMORTLAR USTIDA ISH OLIB BORISH”**

mavzusidagi

5110800- “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Sh.U.BOBONAZAROV

Navoiy 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....

**I BOB. TASVIRIY SAN`AT HAQIDA UMUMIY
TUSHUNCHALAR.....**

**1.1. O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitishning, kelib shiqish
tarixi.....**

1.2. Mustaqillik yillarida tasviriy san`atning o`qitilishi.

II BOB. ODDIY NATYURMORT KOMPOZITSIYASI

2.1. Rangtasvir san`ati

**2.2. Natyurmort kompozitsiyasi. Murakkab bo`lmagan natyurmort-
lar ustida ish olib borish yo`llari.....**

**2.3 Natyurmort tuzish. Akvarelda natyurmortni bosqichma-bosqich
ishlash.....**

Umumiy xulosalar

Atamalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab shiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo`llarining aniq va to`g`ri ko`rsatib berilganligi, bosh maqsad yo`lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo`lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o`zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqishlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kushayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydon- dagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o`z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kushayishiga ham ta'sir ko`rsatadi.

Shunga ko`ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi shora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Shunday ekan bugingi kun talabi, har tomonlama mukammal ilm egalarini jamiyatimizga yetkazib berishimizni, davrning o`zi talab qilmoqda.

Prezidentimiz yoshlarni har tomonlama qo`llab quvatlashlari, yoshlar uchun dunyo eshiklari ochilganligidan dalolatdir. Bu imkoniyatlardan biz yoshlar, unimli foydalanishimiz ham qarz, ham farzdir. Buning yana bir isboti o`laroq 2016-yil "Sog`lom ona va bola yili" deb e`lon qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilganligidir. Yoshlarimizning kelajagini o`ylab, ularning kamida to`rtta (ingliz, fransuz, rus) tilni mukammal bilishlari, axborot telekamuni-katsiyalardan unimli foydalanish olishlarini ta`kidlab o`tishlari bejiz emas.

Maktabdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar axborot texnologiyalari yordamida matn bilan ishlashni, tasviriy ob'ektlarni va ma'lumotlar bazasini yaratishni, elektron jadvallardan foydalanishni o'rganadi. O'quvchilar axborot yig'ishning yangiusullarini, ulardan foydalanishni o'rganishadi, ularning dunyoqarashi kengayadi. Darslarda axborot texnologiyalari ning ishlatilishi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, o'quvchilarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter axborot texnologiyalari bilan birgalikda ta'lim sohasida, o'quvchilarning o'qish va ijodkorligida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ilk bor ta'lim axborot texnologiyalari shaxsning bo'lajak kasbining asosiy instrumenti bo'ladigan vaziyat vujudga keladi. Ta'lim haqiqattan ham hayotimizga butun hayot faoliyati davomida kirib kelaveradi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" deb alohida ta'kidlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi :

Men o'z bitiruv malakaviy ishimda, Natyurmort kompozitsiyasi murakkab bo'lmagan natyurmortlar ustida ish olib borish haqida, umumiy tushuncha berishni, tasviriy san'at mashg'ulotlarida, taniqli natyurmortchi rassomlarning ijodini o'rganishni bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Ishning tadqiqot ob'ekti: – maktab va kollejlarda Natyurmort kompozitsiyasi, murakkab bo'lmagan natyurmortlar ustida ishlash "Tasviriy san'at" darslarida natyurmortlar ustida ishlash mashg'ulotlarini zamonaviy loyihalash.

Ishning tadqiqot predmeti: – maktab va kolejlarda natyurmort kompozitsiyasi, murakkab bo'lmagan natyurmortlar ustida ishlash "Tasviriy san'at" darslarida natyurmortlar ustida ishlash mashg'ulotlarini zamonaviy

loyihalash, o`quvchilarda Natyurmort kompozitsiyasining milliy va jahon badiiy qadriyatlariga qiziqishlarini rivojlantirish mazmuni, shakli va metodlari

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

– Oliy o`quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, maktab va nafis san`at litseylarida rangtasvir mashg`ulotlarini o`qitishda talaba-o`quvchilar uchun yengil usullardan foydalanib dars berish orqali bilim, malaka ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab va kollejlarda o`quvchilarining tasviriy san`at darslarini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at darslarida bolalarga natyurmort chizishni o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Bitiruv malakaviy ishimizni yozishda quyidagi:

– analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan unumli foydalana oldik.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 62 sahifani tashkil etadi.

I BOB. TASVIRIY SAN'AT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. 11-rasm. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y berganligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat sharq, hattoki yevropa mamalakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirotda miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura makatblari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo'nalishida rivojlangan bo'lsa-da, lekin ulardan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitishda bimalol foydalansa bo'ladi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari,

rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozisiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

1. 1. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi kelib chiqish tarixi.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Hirotlik Miroq naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Miroq naqqoshning Hirot «Nigoristoni» (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Kamoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng iste'dodli yoshlarni to'plagan, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sul-ton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisoblangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning

mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M. Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S. Chuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboevlar yoshlar bilan mashg'ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O'zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo'lsa-da umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma'lum rol o'ynadi.

Shu bilan birga ta'lim tizimida estetik va badiiy ta'lim masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi.

1918 yilda umumiy ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan «Osnovno'e prinsipov` yediniy trudovoy shkolo'» nomli asosiy hujjatda «Estetik ta'lim deganda qandaydir sodda bolalar san'atini o'qitilishini tushunmaslik lozim, u xissiyot organlari va ijodiy qobiliyatlarni muntazam rivojlantirib boradi va u go'zallikdan zavqlanish va ularni yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu elementdan mahrum qilingan mehnat va ilmiy ta'lim jonsiz gavgaga o'xshab

qoladi. Chunki hayotdagi zavq va ijod quvonchi mehnatning ham, ilmning ham yakuniy maqsadidir» deb yozilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston maktablari uchun ham asos qilib olindi.

Bolalar ijodi bilan shug'ullanayotgan ko'pchilik rassomlar bolalar ijodini ideallashtirdilar va yevropada keng tus olgan «Erkin ijod» deb ataluvchi tushukunlikka yuz tutgan nazariyadan kelib chiqqan qarashlarni yoqladilar. Bu yo'nalishdagi mutaxassislar pedagog faqat bola ijodini erkin rivojlantirishi va malakasini oshirishga yordam berishi lozim deb qaradilar. Mana shunday mutaxassislardan biri Peterburglik an'atshunos A. V. Bakushinskiy edi. U o'zining «Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie» nomli kitobida badiiy tafakkur va badiiy ijodga to'liq erkinlik berish kerak, bolalarning badiiy didini, badiiy asarini «tuzatish», «qotillik hisoblanadi» deb yozdi. Bu fikr o'sha davr pedagogika nazariyasiga tamomila zid edi.

Ma'lumki, jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan kishilarning psixologiyasi ham o'zgarib boradi. Kishilar, xususan, bolalar esa ularni o'rab olgan muhitda asosan ta'lim bilan tarbiyaning uyushgan holdagi ta'sirida rivojlanadi. Asrlar davomida yig'ilgan o'zlarining tajriba bilim va malakalarini yoshlarga o'tkazadilar. Natijada yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, bilim va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish ko'p jihatdan tarbiyaning yo'nalishga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi yoki tarbiyachining ta'sir kushini tan olmagan, bolalarni o'qituvchidan ajratib qo'ygan «Erkin ijod» nazariyasi yoshlarning badiiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Bu nazariya O'zbekistonda nashr etilgan dasturlarda va umumiy ta'lim va tarbiyaviy ishlarda o'z aksini topdi.

Xususan, O'zbekiston maktablari uchun 1935 yilda nashr etilgan «Rasm va loy ishi» nomli dasturda «Erkin rasm chizish» bo'limi mavjud bo'lib, bu bo'limga I sinfda 8 soat, II sinfda 6 soat, III sinfda 4 soat, IV sinfda 2 soat vaqt ajratilgan edi.

Natijada maktab dasturlari qayta ko`rib chiqildi. Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san'at haqida suhbat o'tkazish mashg'ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o'lkashunoslik materiallari ko'p bo'lmasada, har qalay o'z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o'qituvchining yetakchilik roli katta ekanligi belgilab qo'yildi.

Mazkur nazariya yuzasidan Rossiyada ham, yevropada ham katta tortishuv va tanqidiy fikrlar bildirildi. U badiiy tarbiya sohasida ham salbiy, ham ijobiy rol o'ynadi. Uning salbiy tomoni bolalar ijodiga rahbarlikni inkor etilishi va pedagogika nazariyasiga zid yo'l tutilganligi edi.

Ijobiy tomoni esa ko'proq bolalar tasviriy ijodiga etiborni kushaytirish, bolalar shaxsiga hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lish, pedagogik hamkorlikka yo'naltirilgan mustaqillik va ijodni ro'yobga chiqarish bilan belgilanadi.

1924 yilga kelib maktab o'quv rejalarida rasm darslari o'z o'rnini topmagan bo'lsa-da ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqtidorli yosh grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925 yilda «Maorif va o'qituvchi», keyin «Alanga» jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar elon qildi. 1932 yilga kelib uning «Rasm chizishni o'rganish qo'llanmasi», 1933 yilda esa «Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi» albomi nashr etildi. 1935 yilda rassomning «harf yozishni o'rgan» kitobi ham chop etildi. Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari talablari asosida yaratilgan «Rasm» predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta'lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy sa'nat studiyalari, klublar, havaskorlik to'garaklari, grafikani mustaqil o'rganuvchilar uchun ham ahamiyatli bo'ldi

1920 yilgi o'quv rejalarida san'atga doir o'quv predmetlariga tegishli o'rin ajratilmagan bo'lsa-da, 1929 yilga kelib bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o'quv predmetlari o'qitila boshlandi.

Lekin O`zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi. Bu dasturlar ma`lum miqdorda O`zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalashgan edi. Shu munosabat bilan O`zbekiston xalq morifi kommissarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: «Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O`qituvchi oldindan o`lkashunoslik materiallarini to`plab olgan holda, o`z tumani hayotiga oid eng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi».

Shu munosabat bilan boshlang`ich sinf «Rasm va loy ishi» dasturiga o`lka materiallari kirita boshlandi. Ular tevarak-atrof tabiatiga doir narsalar, O`zbe- kiston halq amaliy san`atiga doir materiallar edi.

Ta`sviriy san`at predmeti metodikasi shakllanishida 1934 yilda Toshkentda, Keyinchalik Respublikamizning har bir viloyat markazlarida tashkil etilgan «Markaziy badiiy tarbiya uylari» katta rol o`ynadi. Bu tarbiya uylari o`quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashga oid dasturiy va metodik materiallarni ishlab chiqdi.

Badiiy tarbiya uylarida boshqa sho``ba bilan bir qatorda tasviriy san`at sho``basi ham bo`lib, unda uch yillik tasviriy san`at studiyasi ham tashkil etilgan edi.

Bu badiiy tarbiya uyidagi Ikkinchi sho``ba bolalar rasmlarining ko`rigini tashkil etish bilan shug`ullangan. Uchinchi sho``ba esa nihoyatda serqirrali bo`lib, uning asosiy vazifasi bolalar bilan rasm darslarida ish olib boruvchilarga metodik yordam ko`rsatish hisoblanardi. Shuningdek, bu sho``ba qo`yidagi ishlarni ham olib borgan:

- tasviriy san`at studiyalari uchun mashg`ulotlar dasturini ishlab chiqish;
- maktab tasviriy san`at to`garaklari uchun mashg`ulot mavzularini ishlab chiqish;
- 1-6 sinflarda rasm mashg`ulotlarining mazmuni va mavzularini ishlab chiqish;

- 1-6 sinflarda rasm darslarining ahvolini o`rganish va o`qituvchilarga metodik yordam ko`rsatish;
- shahar maktablarining rasm o`qituvchilari uchun seminar tashkil etish;
- Respublika viloyatlaridan kelgan o`qituvchilar va to`g`arak rahbarlari uchun seminarlar tashkil etish va ularga tegishli yordam ko`rsatish.

1936 yildan boshlab Respublika miqyosida yuzaga kelgan pioner uyi va saroylari ta`lim-tarbiya, ommaviy-badiiy, texnikaviy, tabiatshunoslik kabi bir qator ish shakllarini o`zida mujassamlashtirgan muassasa ekanligini ko`rsatdi. Natijada, badiiy tarbiya uylarining vazifalari ana shu pioner uylari va saroylariga olib berildi. Pioner uyi va saroylarining soni yildan-yilga oshib borib, sifat jihatdan yangi mazmun kashf eta boshladi.

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq qilmagan, lekin uning hamma bo`limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma`lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo`lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo`limida o`zbek amaliy san`at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1939 yillarda maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi o`quvchilarda tasviriy malakalarni o`stirish, ko`proq rasm chizishga o`rgatishdan iborat bo`lishi lozim deb topildi. Shuning uchun ham rasm darslarida tarbiyaviy tomonlarga yetarlicha e`tibor berilmadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida va qisman undan keyingi yillarda ham rasm darslarining vazifalari o`zgardi, uning mazmunida ta`limdan ko`ra tarbiyaviy jihatlar kushaytirilgan bo`lib, unda asosiy e`tibor vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga qaratildi. Shu maqsadda rasm darslari vatanparvarlik va baynalminal mazmundagi tasviriy san`at asarlari bilan boyitildi. Ular ko`proq rassomlarning nemis-fashist bosqinchilarining kirdikorlarini ochib tashlashga qaratilgan asarlardan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng «Rasm» predmetining o'qitilishiga e'tibor kushaytirildi va u maktab o'quv rejalarida tegishli o'rinni egalladi. 1947-48 o'quv yili uchun tuzilgan o'quv rejada «Rasm» uchun haftasiga I-sinfda 1 soat, II- sinfda 1 soat, III-IV-sinflarda 0,5 soat, V-sinfda 1 soat vaqt ajratilgan bo'lib, natijada umumiy haftalik soatlar 4 soatni tashkil etdi.

1950-60 yillar davomida tayyorlangan va nashr etilgan dasturlarda «Rasm» o'quv predmetining vazifasi urushga qadar tuzilgan dasturlardan farq qildi.

1953 yilda nashr etilgan dastur «Rasm solish» deb nomlanib u o'quvchilarni tarbiyalashda katta rol o'ynashi ta'kidlangan bo'lsa, 1956 yilda nashr etilgan «Rasm» dasturida esa bu predmetning vazifasi o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladigan va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o'quv predmetlaridan biridir. 1950 yillarda bu masala bilan Samarqand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan P. P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shug'ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti xalq xo'jaligini, xususan umumta'lim maktablarini yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondira olmasa-da, maktablarda rasm o'quv predmetlarning o'qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferensiya, yig'ilishlarda ham o'z ifodasini topdi. Shuningdek, badiiy bilim yurtini bitirib chiquvchilar maktablarda tashkil etilgan ko'rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

Tasviriy san'atning o'qitilishini takomillashtirishda 1955 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakulteti katta rol o'ynadi. Mazkur fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlana boshlandi. Shuni ham qayd qilish lozimki, mazkur fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi ancha yuqori bo'lib, o'sha yillar bu fakultetda mashg'ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Masalan, O'zbekiston halq

rassomi A. Abdullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassomlar Yu. Yelizarov, M. Saidov, A. Yurovskiy, T. Oganegov, shuningdek Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini yangigina bitirib kelgan yosh lekin talantli rassomlar R. Choriev, N. Kovinina va boshqalar shular jumlasidandir.

1964-70 yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo'nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlang'ich sinf metodikasi fakultetlarida «Boshlang'ich sinf va tasviriy san'at o'qituvchisi» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo'nalishlardagi mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik bu yo'nalish o'zini oqlamagach, yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy-grafika fakultetlari ochildi.

1970 yilda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Angor, Xiva, Xo'jayli, Shahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi

Bolalarga rasm chizishni o'rgatish bo'yicha ilmiy, metodik ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida 1960 yilda O'zbekiston pedagogiki fanlari ilmiy tadqiqot instituti qoshida musiqiy – badiiy ta'lim bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir bir qator dolzarb masalalarni tadqiqot qilishga kirishdi. Ular «Tasviriy san'atdan 1-3 sinf o'quvchilarining bilim, malaka va ko'nikmalari darajasini aniqlash» «Narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlari samaradorligini oshirish yo'llari», «Boshlang'ich sinflarda mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya» «O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirish», «O'zbekiston dekorativ-amaliy san'ati vositasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash», «Estetika asoslari va san'atshunoslik» dan fakultativ kurs, «O'zbekiston umumta'lim maktablarida naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi»,

«Maktabda tasviriy san'atni boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liqligi» va boshqa tadqiqotlar shular jumlasidir. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari asosida maktablar uchun dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, ilmiy, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ular Respublika maktablariga tadbqiq qilindi.

Yana bu bo'lim o'z faoliyati davomida tasviriy san'atni o'qitishga doir ilmiy xodim, tadqiqotchi-aspirantlar hamkorligida quyidagi ishlarni tayyorladi va nashr etdi: «Tasviriy san'at» (1-3 sinflar uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1965-1981); «Tasviriy san'at» (4-6 sinflar uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1967-1981); «Naqqoshlik» (Maktab va pioner uylari va saroylari uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1976); «Tasviriy san'at va loy ishi» (Maktab tayyorlov guruxlari dastur. - Toshkent, 1980.) kabilar shular jumlasidandir.

1965 yildan boshlab Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining estetik tarbiya bo'limida tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tartibga solish maqsadida darslik yaratishga kirishildi. 1969 yilda 1- sinf uchun «Tasviriy san'at» (A. Jilsova, R. Hasanov); 1974 yilda II sinf uchun «Tasviriy san'at» (R. Hasanov, A. Jilsova); 1976 yilda III sinf uchun « Tasviriy san'at» (R. Hasanov, A. Jilsova); 1977 yilda IV sinf uchun « Tasviriy san'at» (R. Hasanov, B. Oripov va boshqalar) nashr etildi. 1-3 sinflar uchun nashr etilgan darsliklar keyingi yillarda bir necha bor qayta chop etildi.

1970 yildan boshlab maktablarda tasviriy san'atni o'qitish muammosi yuzasidan estetik tarbiya sho''basi qoshida Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarining o'qituvchilari, Ushinskiy nomidagi o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy instituti va viloyat o'qituvchilari malakasini oshirish institutining metodistlari, O'zbekiston maorif vazirligining metodistlari, aspirant-tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Mazkur masalalar bilan bir qatorda maktab tasviriy san'at o'qituvchilari ham shug'ullandilar.

O'zbekiston umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishni yaxshilashda olib boriladigan tadqiqotlarning natijasi sifatida quyidagi nashr qilingan metodik qo'llanma va ko'rgazmali qurollar alohida ahamiyat kasb etdi:»Narsaning o'ziga qarab rasm chizish» (R. Hasanov), – Toshkent: O'qituvchi, 1969; «Boshlang'ich sinflarda naqsh chizish metodikasi» (R. Hasanov), – Toshkent: O'qituvchi, 1972; «Tasviriy san'atdan tablisalar» (R. Hasanov),- Toshkent: O'qituvchi, 1975; « 1-3 sinflarda tasviriy san'at darslari» (R. Hasanov),- Toshkent: O'qituvchi, 1977; « Rasm Chizish va uni o'qitish metodikasi» (Z. Egamberdiev, R. Hasanov va boshqalar), - Toshkent: O'qituvchi, 1977; « Tema asosida rasm Chizish jarayonida estetik tarbiya» (R. Hasanov),-Toshkent: O'qituvchi, 1980; «Boshlan- g'iCh sinflarda tasviriy san'at darslari» (R. Hasanov), - Toshkent: O'qituvchi, 1983; «Yosh avlodni san'at vositasida estetik tarbiyalash» (R. Hasanov),-Toshkent: O'zbekiston, 1982; «Maktab Chizmachilik, tasviriy san'at kabinetlarini tashkil etish va o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar» (B. Oripov),-Toshkent: O'qituvchi, 1974; «Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari» (B. Oripov), - Toshkent: O'qituvchi, 1978; «Naqqoshlik» (Q. Qosmov),- Toshkent: O'qituvchi, 1982. yana shu narsani ham quvonch bilan ta'kidlab o'tish lozimki, Pedagogika fanlari institutining estetik tarbiya bo'limi 1970 yildan boshlab muntazam ravishda maqolalar to'plamini nashr eta boshladi. Bu to'plam bo'lim ilmiy xodimlari, tadqiqotchi-aspirantlarning ishlaridan tashkil topgan bo'lib, ularda tasviriy san'atni o'qitishga katta o'rin ajratilgan edi.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilashda A. Shohamidov, M. Nabievlarning 1964 yilda nashr etilgan «I-IV sinflarda rasm darslari» metodik qo'llanmasi, O. Apuxtinning 1965 yilda nashr etilgan «San'at haqida suhbatlar»nomli qo'llanmalari o'qituvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

1970-yilga kelib tasviriy san'at o'qituvchilarining ish tajribalari ko'zga ko'rina boshladi va ularning faoliyatlari ancha faollashdi. Shuningdek, Respublika pedagogik o'qishlariga qatnashayotgan muallimlar soni ham ortadi.

Masalan, 1963 yilgi Respublika pedagogika o'qishlarida bironta ham tasviriy san'at o'qituvchisi qatnashmagan bo'lsa, 1970 yilga alohida estetik tarbiya sho'bbasi tashkil etildi. 1972 yilda esa «Estetik tarbiya» sho'bbasida «Tasviriy san'at» kichik sho'bbasi ish olib bordi va unda 17 ma'ruza tingladi. Keyingi pedagogik o'qishlarda ma'ruzachilarning soni yana ham ko'payib bordi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yaxshi natijalarga erishib, pedagogik o'qishlarda muvaffaqiyatli qatnashganliklari uchun bir qator taniqli o'qituvchilar vazirlikning mukofotlariga ham sazovor bo'ldilar.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratini oshirish va ilg'or pedagogik tajribalarni tashviqot qilishda Respublika miqyosida o'tkazilayotgan seminar va konferensiyalar katta rol o'ynadi.

1969 yilda estetik tarbiyaga bag'ishlangan Respublika seminar kengashi 1970 yilga kelib an'anaviy Respublika konferensiyaga aylandi va u har yili galma-galdan Respublikamizning viloyatlarida o'tkazib turildi. Samarqand, Jizzax, Xorazm, Buxoro, Namangan, Andijon konferensiyalarida o'qituvchi, tarbiyachi, xalq maorifining rahbar-xodimlari bilan bir qatorda ilmiy xodimlar, metodistlar ham ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar. Ma'ruzalarda dolzarb masalalarni ko'tarib chiqdilar. Bunday ilmiy-amaliy konferensiyalar faqat Respublika miqyosida emas, balki viloyat, shahar, tuman miqyosida ham o'tkazib turildi.

«Tasviriy» san'at deb nomlangan yangi dastur loyihasi shu vaqtgacha amalda qo'llanib kelingan «Rasm» predmeti asosida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi.

Uni tuzishga yuqorida qayd etilgan qaror asos bo'ldi:

a) maktabda ta'limning mazmuni va strategiyasini fan, texnika va madaniyat taraqqiyotining hozirgi darajasiga mos keltirish;

b) maktabda ta'lim va tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'lanishini yanada mustahkamlash;

v) bir-biriga bog'liq bo'lgan o'quv fanlari o'rtasida aloqa o'rnatish. Bu orqali o'qitish samaradorligini oshirish, zarur bilimlarni egallashda bolalarning bilish va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga yordam berish;

g) o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari va mustaqil ishlarining kengaytirilishi, ularni ortiqcha ish bilan band qilmaslik va hokazolar.

Shuningdek, dasturni tuzishda quyidagi tomonlar ham hisobga olindi:

a) so'nggi yillarda yaratilgan O'zbekiston tasviriy san'ati asarlaridan keng foydalanish;

b) boshlang'ich ta'limni 1-3-sinflar bilan chegaralanishi munosabati bilan boshlang'ich va 4-6-sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmuniga aniqlik kiritish;

v) zamon talablari asosida tasviriy san'at predmetining vazifalarini aniqlash;

g) naturadan rasm chizish darslari uchun o'zbek halqining hayotida keng qo'llaniladigan narsalar va iste'mol buyumlaridan keng foydalanish;

d) dekorativ rasm darslarida o'zbek halq amaliy san'ati namunalaridan Chizish uchun tavsiya etish.

Mazkur dasturda shartli ravishda hajmsiz deb qisoblangan narsalarning rasmini (papka, daftar, portfel, barg va boshqalar) ishlash 1-3- sinflardan 4-sinfga ko'chirildi.

1967-68 o'quv yilidan boshlab yangi dastur loyihasi Respublikamizning Namangan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrining qator maktablarida sinab ko'rildi.

O'zbekiston Maorif vazirligi va O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining tekshiruvlari natijasida yangi ta'lim mazmuni ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilmayotganligini ko'rsatdi. Shuningdek, dasturdagi badiiy qurish-yasashga doir materiallar esa o'quvchilar kushiga mos emasligi ham ma'lum bo'ldi. Shuning uchun bu bo'lim keyingi yillarda dasturdan chiqarib tashlandi.

Yangi dastur o`quvchilarning estetik tarbiyasiga aloqador bo`lgan tashkilotlar muassaslar, uyushmalarning faoliyatini qo`yidagi yo`nalishlarda faollashtirishni nazarda tutgan edi:

a) har yili mantazam ravishda o`quvchilar rasmlari respublika ko`rgazmalarini o`tkazish;

b) tasviriy san`at bo`yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ko`lamini kengaytirish natijasida maktab to`garaklari, san`at maktablari, pedagogika bilim yurtlari va institutlari uchun bir qator dastur, darslik, qo`llanma va to`plamlar tayyorlash va nashr etish;

v) umumiy ta`lim maktablarida yirik rassomlar asarlaridan ko`chma ko`rgazmalar tashkil etish;

g) O`zbekiston rassomlar uyushmasi qoshida o`quvchilar estetik tarbiyasi bo`yicha komissiya tashkil etish.

1. 2. Mustaqillik yillarida tasviriy san`atning o`qitilishi.

Mustaqilikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta`limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo`yildi. SHu maqsadda 1992 iyulda «Ta`lim tug`risida» gi qonun e`lon qilindi. Bu hujjatda ko`rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo`nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi barcha o`quv fanlari qatori «Umumta`lim maktablarida tasviriy san`at ta`limi konsepsiyasi» ham tayyorlandi va u O`zbekiston xalq ta`limi vazirligi kollegiyasining 5 may 1993 yilgi 5-5 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

- Mustaqil O`zbekiston sharoitidagi o`zbek bolasini shakllantirishga bo`lgan zamonaviy talablar;

- ta`lim-tarbiyani milliy madaniyat va san`at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

- ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

- maktabdagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

- maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish;

- O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi.

Konsepsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan «Tasviriy san'at va badiiy mehnat», 1-7-sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan «Tasviriy san'at» dasturlari tayyorlandi. SHuningdek, 1-8 sinflar uchun mo'ljallangan 560 soatli «Tasviriy san'at» dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko'p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi.

Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo'lib, u tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, ta'lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san'at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R. Hasanov va X. Egamovlarning birinchi sinf o'qituvchilari uchun «Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari» (-Toshkent: O'qituvchi, 1997), R. Hasanovning 5-sinf o'qituvchilari uchun «Tasviriy san'at darslari» (-Toshkent: O'qituvchi, 1997.) nomli qo'llanmalari chop etildi.

Yangi dasturlar asosida tasviriy san'at darsliklarini yaratish muammosi paydo bo'ldi. Natijada 1996-1998 yillar davomida 1-4 sinflar uchun «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» darsliklari yaratildi, biroq ulardan 1998 yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O'zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999 yilda yangi o'quv rejalari va ta'limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta'limning davlat standartida bu o'quv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi.

R. Hasanovning fakultativ mashg'ulotlar uchun «Tasviriy san'at» (1989), «O'qituvchining o'zi ustida mustaqil ishlash dasturi»(1993), «Tasviriy san'at darsliklarini yaratish mezonlari» (1994), O. Xudoyorovanning «O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish tarixidan» (1993), B. Boymetov va N. Tolipovlarning «Maktabda tasviriy san'at to'garagi» (1995) nomli risollari ham amaliyotchilarga yetkazildi.

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining «San'at va chizmachilikni o'qitish nazariyasi va metodikasi» bo'limida «O'quvchilarni tasviriy san'atdan mustaqil ishlari», «Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar metodikasi»ga oid tadqiqotlar ham olib borildi.

1995 yilda buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 540 yilligi munosabati bilan pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida «Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o'rganishning pedagogik ahamiyati» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. 2000 yilda esa Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yiligi munosabati bilan «Kamoliddin Behzodni jahon tasviriy san'ati va ta'lim tizimiga ta'siri» mavzusida ana shunday anjuman o'tkazildi. Ikkala anjuman materiallari ham to'plam shaklida chop etildi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hujjatlarining e'lon

qilinishi katta tarixiy voqea bo'ldi. U amaldagi ta'lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo'lib, unda ta'lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

Ushbu hujjatda dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida barcha fanlardan davlat ta'lim standartlarini yaratish va amaliyotga joriy etish belgilab berildi. Barcha fanlar qatori «Tasviriy san'at» o'quv predmetidan ta'limning davlat standarti ham tayyorlandi. Mazkur standartda o'quvchilarni 1-7 sinflarda tasviriy san'atdan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar ham bayon etilgan bo'lib, tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari sifatida borliqni idrok etish (1-4 sinflar), badiiy qurish-yasash (1-4 sinflar), naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflar), san'atshunoslik asoslari (1-7 sinflar), kompozitsiya (1-7 sinflar) bo'limlari qayd qilindi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan davlat ta'lim standarti bo'yicha 1999 yilda o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmeti 1-7 sinflarda o'qitilib, uning nomi hamma sinflarda «Tasviriy san'at» bo'lib qoldi. Bu o'zgarishlar asosida yangi darsliklar yaratish muammosi paydo bo'ldi. Bu darsliklar 2001 yilda R. Hasanov tomonidan 1-3 sinflar uchun tayyorlandi. Lekin, ular Respublika xalq ta'limi Vazirligi darsliklar sonini ko'payib ketganligini vaj qilib ularni nashr etishni lozim topmadi. Bulardan biri birinchi sinf darsligi 2001-2002 yillarda chop etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu tadqiqotlarning natijalari dissertatsiya shaklida himoya qilindi. Ular R. Hasanovning 1994 yilda «O'zbekiston umumta'lim maktablarida badiiy ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari» mavzusida doktorlik, A. Turdaliyevning 1996 yilda «Tasviriy san'at darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni badiiy kasb-hunarlariga yo'llash», O. Xudoyorovanning 1997 yilda «O'zbekiston umumta'lim maktablarida tasviriy san'at o'qitilishining shakllanishi va taraqqiyoti» mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalaridir.

Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, 2002 yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo'limlar faoliyat ko'rsata boshladi. Tasviriy san'at o'qituvchilari Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi.

Mustaqillik yillarida R. Hasanov tomonidan tayyorlangan va chop etilgan 1-7- sinflar uchun «Tasviriy san'at» dasturi (1994 y.), «Tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi» (1995 y.), «Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti» (1999 y.), «Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish» (2000 y.), «Tasviriy san'atdan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash» (2003 y.) nomli ishlari mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitilishini yaxshilashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

II-BOB. NATYURMORT KOMPOZITSIYASI MURAKKAB BO`LMAGAN NATYURMORTLAR USTIDA ISH OLIB BORISH

Natyurmort tasviriy san'atning o'ziga xos mustaqil janri. «Natyurmort» – (*nature morte*) fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi va unda ko'pincha mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda hamda mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atda insonning maishiy hayotini aks ettiradi.

Natyurmort XVII asrning boshlarida Gollandiyada paydo bo'ldi. Keyinchalik ko'plab mamlakatlarga tarqalib, ayniqsa, XVIII asrning o'rtalariga kelib tasviriy san'atda mustaqil janrga aylandi.



Rangtasvir san'atining tengsiz ustasi – fransiyalik rassom Jan Batist Simeon Shardenning «San'at atributlari» asarini kuzatganimizda, unda oddiy buyumlarning yuksak badiiy tasviri aks etganligining guvohi bo'lamiz.

N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Yu. Yelizarov, R. Ahmedov, G'. Abdurahmonov, N. Ten, A. Yunusov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar tabiat yaratgan noz-ne'matlarga bo'lgan mehrlarini o'z asarlarida ifodalaganlar. Natyurmort tasviriy san'atning alohida janri hisoblanadi. Natyurmortda shakli, mazmuniga qarab har bir buyumning tutgan o'rnini yoritib berish lozim. Tasvirlanayotgan buyumlarning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatdan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berish kerak.

2.1. NATYURMORT KOMPOZITSIYASI

Natyurmort mustaqil janr bo'lishi bilan birga, mavzuli suratlardagi asarlarning mazmunini ochishga ko'maklashuvchi, uni to'ldiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Taniqli rassom N. D. Ten ishlagan «Natyurmort» da meva va issiq nonlarda O'zbekiston quyoshi nurlari jilvalanib turibdi. Mo'yqalam sohibi asar mazmunini ustalik bilan yoritib bera olgan. Sarg'ish-qizil mevalarni qizil, ko'k, yashiltob kabi turli-tuman ranglar bilan uyg'unlashtirib tasvirlashi tufayli suratning ta'sirchan chiqishiga erishgan.

Alohida mazmunli natyurmort asari yaratish haqidagi fikr rassom xayolida uzoq vaqt davom etgan kuzatishlar yoki biror buyumdan ta'sirlanish oqibatida to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Ijodkor ko'z o'ngida bo'lajak natyurmort yaxlitligicha gavdalanadi. Unga mos buyumlar tanlab, e'tibor bilan joylashtirish haqida fikr yuritadi, xomaki eskizlar chizadi hamda shu eskizlar asosida kompozitsiya tuzadi.

Natyurmortning qo'yilmasini tuzish, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Bajaradigan vazifasini nazarda tutib, natyurmortdagi buyumlar turli holatlarda qo'yiladi. Natyurmortda tasvirlanadigan buyumlarning o'lchamlari turlicha bo'lishi maqsadga muvofiq. Kichikroq buyumlar oldinroqda, yiriklari orqaroqda tasvirlanadi. Natyurmort tuzganda uning foniga ahamiyat berish kerak. Qo'yilgan natyurmortning umumiy tusini hisobga olib, ochiq ranglardagi natyurmort qo'yilmalari uchun qoramtir fon va, aksincha, to'q ranglardan tuzilgan natyurmort qo'yilmalari uchun oqish fon tanlanadi. Natyurmort ufq chizig'idan pastroqqa joylashtiriladi. Shunda buyumlarning fazoviy holati va buyum tekisligi yaxshi ko'rinadi. Natyurmort to'g'ri qo'yilgandan so'ng u sinchiklab kuzatiladi. Natyurmort kompozitsiyasini qog'ozga to'g'ri joylashtirish maqsadida qog'ozdan yasalgan maxsus asbob (videoiskatel)dan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu asbob orqali topilgan kompozitsiyaning kichik o'lchamdagi to'la xomaki rasmi alohida qog'ozga chizib ko'riladi. Rasm kompozitsiyasi topilgandan so'ng asosiy ish – yangi qog'ozga buyumlar to'plamining tasviri chizishga o'tiladi.

Natyurmort chizganda undagi hamma buyumlarni bir yo`la tasvirlash lozim. Aks holda rasmda bir buyumning o`lchami kattaroq, ikkinchisiniki kichikroq bo`lib, rasm kompozitsiyasi buziladi. Buyumlarning umumiy balandligi va eni ish qog`ozida yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi. Natyurmortning kompozitsiyasi belgilangandan keyin qo`yilmadagi har bir buyumning o`lchami, shakli (tuzilishi, rangi, yorug`-soyasi)ni aniqlashga o`tiladi, ya`ni natyurmort chizishda umumiydan xususiyga va xususiydan yana umumiyga o`tish prinsipiga amal qilinadi. Misol uchun, ikki-uch buyumning tasvirini chizishda buyumlarning o`lchami jihatidan o`zaro farqi, oralig`idagi masofa, soya va yorug`larning farqi ko`z bilan chamalab topiladi. Natyurmort ish qog`ozining o`rtasiga joylashtiriladi. Oldin katta-kichikligiga ahamiyat berilib, buyumlar solishtirib ko`riladi, keyin qalam bosilmagan holda ularning tasviri turgan o`rni belgilab olinadi. Tasvirning aniq shakli, ya`ni asar ko`rinishi topilgandan so`ng yorug`lik manbai ham aniqlanadi. Tasvirning muvozanat holatda turishi undan tushib turgan soyaga ham bog`liq. Tushuvchi soya ham buyumlarning fazoviyligi va qanday materialdan ishlanganligini aniqlashga yordam beradi. Qalamda buyumlarning o`z soyasi, o`zidan tushib turgan soyasi uning shakllariga qarab qoralama chiziladi. Buyumlarning perspektiv qisqarishlari hisobga olinib, har bir buyumdagi yorug` va soya qoidaga rioya qilingan holda tasvirlanadi. Keyin natura bilan fon o`rtasidagi och-to`qlikning farqi belgilanadi.


KOMPOZITSIYA

Har qanday san`at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. «Kompozitsiya» – (lotincha *compositio*) tuzish, ijod qilish demakdir. U asar tuzilishida qismlarning asar g`oyasiga muvofiq joylashtirilishi va o`zaro munosabatini anglatadi.


Tasviriy san`atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat va ritm, turg`unlik (statik) va harakat (dinamik), ikkinchi darajali

buyumlarning asosiga bo'ysunishi, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari – yaxlitlik, simmetriya va ritm. Tasodifan terilib qolgan buyumlarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga mutanosib va mos buyumlar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmortning asosiy g'oyasini surat tekisligida tasvirlab ko'rsatib berish uchun, ya'ni natura bilan tasvir o'rtasida to'la o'xshashlikka erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari bo'lgan kompozitsiya, perspektiva, yorug'-soya va rangshunoslik nazariyalarini puxta bilish va ularni amalda qo'llay olish talab qilinadi. Endi bitta buyumni emas, bir necha buyumni o'zaro bog'lanishda qismlari bir-biriga mos bo'lgan yaxlit buyum holda tasvirlab ko'rsatish kerak bo'ladi. Shuning uchun ishni reja asosida metodik ketma-ketlik bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq.



- . «**Natyurmort**»: 1-bosqich. Narsalarni qog'ozga joylashtirish;
2-bosqich. Narsalarning tayanch tuzilishini chizish.




- 3-4-bosqich. Yorug'-soyasini tasvirlash umumlashtirish va yakunlash

Qalamda burchakli, prizmatik buyumlarni tasvirlash (kub, yashik, uy, chemodan, sumka kabilarni). Silindr, konus, shar, chelak, koptok, ko'zoynak choynak ko'zacha va shu kabilarning rasmini chizish.

RANGTASVIR

Asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko'p ilmiy



tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar ishlatilmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio shahridagi Rang instituti dunyoga mashhur. Dunyoning taniqli olimlari

tomonidan rang orqali ramziy ma'noda gapirish: ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilvasi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo'jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish; insonlarning ma'naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o'rganilmoqda.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur allomalar ranglarning turlari, ma'nolari, inson sog'ligiga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p asarlar yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o'zining «Mineralogiya» asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida fikr yuritgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki har bir rangning ramziy ma'nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba'zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: bargikaram, binafsha, bug'doyrang, bo'z gulgun, jigarrang, zangori, za'faron, zumrad, kahrabo, kulrang, ko'k,

lojuvard, lolarang, malla moviy, moshrang, nafarmon, oq, pistamag`iz, pistagi pushti, sariq, safsar, samorang, sur, feruza, o`choq kesak, qizil, qirmizi, qora, qoramag`iz, qoracha, qo`ng`ir, havorang, anordona, aqiq, bayzogul, bargrang, baqa to`ni, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo`ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg`aldoq, kaptarbo`yin, ko`kimtir, novvotrang, nilobi, nimtatir, nimpushti, norgul, olovrang, olmatakori, oq upa suvi, sabzirang, samak, sariq, kesak, siyo, sir, sovot, surmarang, tillarang va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o`tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma`nolari yo`qolish arafasiga kelib qoldi.

Berlin shahridagi Bauxauz rangshunoslik institutidagi mashhur rangshunos olim I. Itten o`quvchilarga «Koloristika muammolari» yo`nalishida ta`lim bergan. Uning bu boradagi tajriba va xulosalari «Rang san`ati» kitobida bayon etilgan¹.

Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan o`quvchi amaliy ijodda samarali shug`ullanishi mumkin. “Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiqchidir va u hech qachon qayergadir ketayotganligiga to`la ishonch hosil qila olmaydi, – deya ta`kidlagan edi Leonardo da Vinchi. Ayniqsa, rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog`liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo`lmaydi”².

Rus rassomi va pedagogi D. N. Kardovskiy qayd etib o`tganidek: «San`atni o`rganayotganlar tasvirlashning yo`llari va usullari, ya`ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug`ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo`ysunishga majburdirlar»³.

¹ Tiriklik timsoli. D. Sultonova, “Tafakkun” jurnali, 2003, 2-son. 87-88-betlar.

² Мастера искусства об искусстве М., Т. 1, с. 124.

³ Д.Н.Кардовский об искусстве. Воспоминания, статьи, письма, с. 128.

Ta'lim olish jarayonida o'quvchilar, avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari – rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Xromatik ranglar, o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k rangning aralashmasi bo'lsa, binafsha qizil va ko'k rangning aralashmasidir. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang sirasiga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar; sirasiga kiradi. Xuddi shunday, binafsharangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa – sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, natyurmortning rangtasvirini ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochiq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarni tasvirda tabiiy holdagidek bera bilish ancha qiyin. Bunga tinimsiz mehnat, nozik did va kuchli mushohada orqali erishish mumkin.

Natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik murakkab natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangli bo'yoqda yozish usuli **grizayl deb ataladi.**

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, bu usul mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu

usul bilan bir nechta natyurmortni tasvirlab o`rgangandan so`ng, barcha rang bo`yoqlar bilan natyurmort rangtasvirini ishlashga o`tish mumkin.

Kamalakning yettita rangi mavjud: qizil, zarg`aldoq, sariq, yashil, ko`k, havorang, siyohrang. Masalan, qizil rang sariq bilan qorishtirilsa – zarg`aldoq rang, sariq rang ko`k bilan aralashtirilsa – yashil rang, ko`k rang qizil bilan qo`shilsa – siyohrang hosil bo`ladi. Faqat uchta rang: qizil, sariq va zangori qorishtirish orqali hosil bo`lmaydi. Qolgan ranglar uchta rang aralashmasidan hosil bo`ladi. Bularni tajribali rassom aniq bilishi zarur.

Bir rangga boshqasini qo`shish natijasida bo`yoqlar o`zining to`yinganligi (yorqinligi)ni yo`qotadi. Masalan, ranglarni qo`shish orqali yorqin zarg`aldoq, yashil va siyohrangni hosil qilish ancha murakkab. Shuning uchun ham ayrim hollarda palitrada tayyor holatdagi yorqin zarg`aldoq, yashil, havorang va siyohrang bo`yoqlarning bo`lishi ortiqchalik qilmaydi. Qora bo`yoqdan unumli foydalanish boshqa bo`yoqlar bilan juda jozibali va nozik aralashmalar hosil qilishga imkon beradi. Masalan, kadmiyning zarg`aldoq bilan aralashmasidan iliq yashil rang hosil bo`ladi. Qoraning iliq bo`yoqlar bilan aralashmasi murakkab iliq rang tuslarini, sovuq bo`yoqlar bilan bo`lgan aralashmasi esa sovuq rang tuslarini beradi.

Agarda pushti rangga bir me'yorda limonli kadmiyni qo`shsak, unda bir qator qizildan to sariqqacha zarg`aldoq rang orqali rang turlarini hosil qilamiz. Agar pushti rangga bir me'yorda ko`k «ΦΙ» qo`shsak, unda qizildan to ko`kkacha siyohrang orqali bir qator ranglar hosil bo`ladi. Limon kadmiyga havorang «ΦΙ» qo`shib, sariqdan to ko`kkacha yashil rang orqali bir qator ranglarni hosil qilamiz. Keyin agar pushtirangga bir me'yorda to`qroq yashilni qo`shsak, qizildan to yashilgacha deyarli qora orqali bir qator ranglar oqartirilsa – kulrang hosil bo`ladi. Agarda ko`k «ΦΙ»ga hosil bo`lgan zarg`aldoq rangni bo`laklarda qo`shsak, unda ko`kdan boshlab zarg`aldoq ranggacha deyarli qora rang orqali bir qator ranglar, oqartirilsa – kulrang hosil bo`ladi. Xususan, qora rangni yashil «ΦΙ»ni to`q-qizil kraplak bilan aralashmasidan hosil qilish

mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, qora, zarg'aldoq, siyohrang va yashil ranglardan foydalanmasdan ishlash ham mumkin.

So'ngra xohlagan bo'yoqni, masalan, och oxrani palitrage olamiz. Uning yoniga limon rang kadmiyga qora bilan qizil bo'yoqlarni aralashtirib, aynan och oxra rangini hosil qilamiz. Boshqa bo'yoqni, masalan, zumrad yashilni olamiz. Havorang «ΦΙΙ» yoniga limon rang kadmiy bilan pushti tiondigo rangini aralashtirib, zumrad yashil rangini hosil qilamiz.

«ΦΙΙ» havorang bilan pushti tiondigo rang aralashmalaridan to'q ko'k kobalt rangini hosil qilamiz. Barcha yashil ranglar: zumrad (yashil)dan xrom (och kulrang) okisi orqali to'q yashil kobaltgacha – havorang «ΦΙΙ», pushti tiondigo va limon rang kadmiylardan olinadi.

Agarda pushti tiondigo bo'lmasa, unda och, to'q-qizil kadmiy, qirmizi yoki kraplak ranglardan foydalansa bo'ladi. Limon rang kadmiy o'rniga och sariq kadmiyni ham ishlatsa bo'ladi. Havorang «ΦΙΙ» o'rniga to'q ko'k kobaltdan foydalaniladi, u bo'lmasa ultramarinni ishlatish mumkin.

Bu mavjud bo'yoq aralashmalaridan esa chegaralangan ranglar doirasi hosil bo'ladi. Masalan, och sariq rang kadmiy bilan ultramarin ranglaridan zumrad (yashil) rangini hosil qilib bo'lmaydi, yashil okis rangiga yaqinroq bo'yoq olish mumkin.

Bo'yoqlarni noo`rin yuritish shaklni buzib, ranglarning betartib bo`lishiga olib keladi, materiallik, hajm va muhitni ko`rsatishga xalaqit beradi. Quyuq bo'yoq surtmasi tasvirni tomoshabinga yaqinlashtiradi, yupqa va silliq surilgani uzoqlashtiradi. Shu sababli natyurmort (yoki manzara) foniga quyuq bo'yoq surtmalarini qo'llash noo`rin.

RANGLAR XUSUSIYATLARI

Dastlabki amaliy vazifa ranglarning uchta xususiyati bilan tanishtirishga bag'ishlanadi, ya'ni bir buyumning ikkinchisidan rang farqlanishi quyidagicha: rang tusi, och-to`qligi va to`yinganligi.

Narsalarning ranglarini biror belgi orqali och-to`qligi, rang tushlari, to`yinganligi yoki har ikkala va uchala xususiyatlari bilan ham ajratish mumkin.

«Rangtasvir – tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo`laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug`lik kuchi va har bir bo`lakni o`zaro taqqoslash natijasida; bo`yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to`laqonli ifodalashi mumkin» – degan edi K.F.Yuon.

Rangning kuchi (to`yinganligi) farqlarini aniqlash rang nafisligi yoki och-to`qligini aniqlashdan ko`ra mushkulroqdir. Yosh rassomlar dastlab ranglarning to`yinganligi bo`yicha farqlanishini tushunmaydilar. Shu sababli ular yashil rangdagi daraxtlar, o`t-o`lanlarni tasvirlash mobaynida ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular etyudlaridagi daraxtlarning yashil barglarini nihoyatda bo`rttirib, yorqin tasvirlaydilar. Ranglarning to`yinganlik jihatdan munosabati aniq berilmagani, etyudlardagi yorug`lik muhit ta`siriga bo`ysunmaganligi yaqqol ko`rinadi va u haqqoniy rangtasvirga o`xshamaydi. Rang munosabatlarini to`g`ri aniqlash uchun ranglarning uchta belgisi bo`yicha buyumlarni bir-biri bilan bir vaqtda taqqoslash lozim. Qo`yilmaning och-to`qligi va to`yinganlik farqlarini qayta qabul qilishda asosiy o`rin kolorit yechimiga bog`liq. Manzara etyudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlash-da, asosan, ranglarning och-to`qligi va to`yinganligi orqali munosabatlarni ko`rsatishga erishiladi. Turli-tuman boshqa faoliyatlar (portret, natyurmort)da tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi.

Ranglarning asosiy xususiyatlarini amaliy jihatdan bilish uchun ularni turli buyumlarda sinab ko`rish kerak (turlicha to`yinganlikdagi mevalar, sabzavotlar, rangli drapirovkalar va hokazolarda).

Rangi, tusi va to`yinganligi jihatidan turlicha bo`lgan buyumlarni puxta o`rganish va taqqoslashdan so`ng, o`quvchilar turli ranglar (qizil, ko`k, yashil va hokazo) uchun to`yinganlik shkalasini alohida dog` yoki surtma sifati (moybo`yoq palitrasi yoki qog`oz yuzasi)da bajarishi lozim, ularning

to`yinganlik darajasi eng yorqindan boshlab deyarli kulrang, neytral rang bilan asta-sekin rangsizlanib boradi.

To`yinganlik⁴ – bu kulrangdan ranglarning nozik farqlanish darajasi yoki uning sof spektr ranglariga yaqinlashuv darajasidir.

Ranglarning turli darajadagi nozik farqlarini bilish uchun asosiy bo`yoqlarni neytral kulrang bilan qo`shish natijasida hosil qilish mumkin. Kulrang bo`yog`i qanchalik ko`p qo`shilsa, masalan, yashil bo`yoqqa, u ko`proq neytral to`yingansizroq bo`ladi.

Keyingi mashqlarda turli masofadagi farqlanishni uchta rang xususiyatlari bo`yicha naturadagiga xos holda ko`rsatib, narsalar rangini naturaning o`zidan ko`chirib olish lozim. Buning uchun stol ustiga (oq qog`oz fonida) rang jihatdan och-to`qligi va to`yinganlik bo`yicha bir-biridan farq qiladigan 3 –5 ta narsani bir qatorga tizib qo`yish kerak. Bu narsalar old tomondan yoritiladi (deraza tomondan), ularda imkon qadar soya va yorug` gradatsiyasi bo`lmasligi, ya`ni ular yassi ko`rinishi lozim. Narsalarning qalamtasviri faqatgina siluet tarzida belgilanadi, ular shaklidagi nozik farqlarga e`tibor bermasdan, faqatgina rang farqlarini dog` ko`rinishida ko`rsatish bilan chegaralanish mumkin.

Bu mashqlardan tashqari, yana uncha murakkab bo`lmagan neytral och kulrang fonda qalamtasviri chizilgan natura qo`yilmasi(3 ta narsadan tashkil topgan natyurmort)ni bajarish lozim. Yorug`likning old tomonidan, ya`ni deraza orqali berilishi oldingi holatda qoladi. Bu mashqning asosiy vazifasi deyarli bir xil dog` sifatida (narsalar silueti)gi narsalar orasidagi munosabatlarni uchta rang xususiyatlari orqali ko`rsatishdir

2.2 Natyurmort kompozitsiyasi. Murakkab bo`lmagan natyurmortlar ustida ish olib borish yo`llari.

Natyurmort (lug`aviy ma`nosi-jonsiz tabiat) haqida gapirganda, odatda, sabzavot — mevalar, gullar, otilgan ilvasinlar, (mulyaj) uy ruzg`or buyumlarni tasvirni ko`zda tutadilar.

⁴ S.Abdirasilov, N. Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir. T., «O`zbekiston» NMIU, 2006. 14-bet.

Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli hayot nafasini sezamiz. Natyumort kompozitsiyasini ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasm chizishga havas hissini uyg'otadigan bo'lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, hajmi, materiali, sirtqi (fakturasi) rang va och - to'qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Masalan, katta chelak yoniga ko'yilgan gugurt qutichasini ko'z ilgamaydi, chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi. Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir - biriga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortni qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi.

SHarden, Surbaran, Kalf, Snayders K.Korovin, I. Mashkov, P. Konchalovskiy va boshqa natyurmort nafis rassomlar asarlarida hayotiy xaqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz.

SHardenning «piyozli natryumorti» da stol ustidagi ko'k piyozni cho'ziq shakli qiziq tirib, surat kompozitsiyasini cho'ziq, bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

SHakli jihatdan unga zid narsalar izlab, SHarden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lgan buyumlarni, mis, qog'oz, sopol va shisha idishlarni tanlagan.

Rassom ataylab shakli o'lchami, materiali bir-biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatni o'ziga xos, narsalarning rang-barang va turli-tumanligi qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jihatidan juda, sodda ko'rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechasini olgan xalos, Mazmunan bir-biriga monand narsalardan tanlab olganidan keyin, ulardan shunday bir yaxlit gurux, tashkil qilish kerakki, u

kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta uning tasvirini yaratish ishtiyoqini hosil qilsin.

Sharden natryumort tuzish tanlagan narsalar-mis qozon, sopol chumich, yashil ragli shisha idish, ko'k piyoz boshlari , ikkita olma va ikkita tuxumdan iborat.

Bular hammasi oshxona ashyolari bo'lib, shakllari, tuzilishlari, sirlari va ranglari har xil.

Bular ulkan mo'yqalam sohibining yuksak talanti, tabiatning beqiyos boyligini ko'ra olishi va to'g'ri idrok qilishini natijasidir.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uni tabiiyligidir. Shuning uchun natyumort tuzish, uni o'rnatish, vaqtida yaxlitlikka e'tibor berib, nihoyasiga yetkazishga harakat qilish lozim.

Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab taxlil qilib, u yoki bu asar insonga nima uchun shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi, degan savollarga javob izlash foydalidir. Natyurmortning manzara yoki intererga nisbatan afzalligi yana shundaki, uni qo'yib olgandan keyin bir necha kun joyidan ko'zg'atmasdan har xil qarash nuqtalaridan qayta-qayta tasvirlash mumkin bo'ladi.

Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuzadi, tafakkuri bilan barpo etadi.

O'quv natryumortning kompozitsiyasi bir tomondan estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik talablariga javob berish kerak.

Natryumort qo'yilmasi puxta va uzoq, vaqt o'ylab, muloxaza qilib tashkil etiladi. Unga ko'p narsa kiritilmasada predmetlarning shakl va ranglari har xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Silliq yaltiroq sirtli idishni, sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma - yon qo'yilsa, ularni takqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug'iladi.

Natyurmortni asosiy talablaridan biri o'lcham, rang va ton jihatidan ajralib turishi, hamda surat teksligining markazita yaqin joyga qo'yabilishdir.

Bu surat mazmunini ochishda, so'zboshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rttirib ko'rsatib beradi. Ko'pincha rassomlar asosiy predmayetni ataylab geometrik markazdan sal siljitib qo'yadilar. Bu muvozanatni saqlash uchun qarama - qarshi tomonda rang va och to'qligi unga zid bo'lgan predmet oladilar.

Atokli natryumortnafislar Sezan, Sharen, Xrutsskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar.

Natyurmort janrida O'zbekistonlik rassomlardan V.Ufimsev, S. Kolibanov, Yu. Yelizarov, R. Axmedov kabilar o'z asarlarida tabiatni beqiyos boyligini milliy ruxda jozibali tarannum etdilar.

O'quv natyurmortining muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo'yilmaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinrokda, biri ikkinchisining va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi.

Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir - biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq shaklidagi narsa kiritiladi.

Surat teksligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan pichoq, qoshiq, qog'oz o'rami, mo'yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo'lib, tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natryurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda unga katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi.

Natyurmortning ufq chizig'iga nisbatan qanday joylashishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z balandligidan pastrokda qo'yilgan natyurmort yotiq predmet teksligida to'la-to'kis ko'rinib turadi, narsalarning asoslari, ularning o'zaro joylashishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlashda qulay bo'ladi. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari peshonadan old tomonidan yoki yondan tushadigan bo'lishi kerak. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritgich ko'yiladi. SHunda oldingi narsalarda yorug' soya kontrasti keskin bo'lib, ularning xajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirlari, yaqqol ko'rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalardagi qarama - qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumlashtirib ko'rinadi. Lekin natyurmort bo'yoqlarda tasvirlanadigan bo'lsa, uni deraza yaqiniga kunduzgi tabiiy nurlar ostida va biroz yonboshdan yorug'lik tushadigan qilib qo'yilgani ma'qul.

Vazifa natyurmortdagi narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda, u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko'p bo'lmaydi va predmetlarning o'z rangi yaqqol, ochiq - oydin ko'rinadi.

Avvaliga fon uchun tanlanadigan gazlamalar yaxlit, sidiq'a va nursizroq bo'lgani ma'qul, chunki olachipor yorqin rangli gazlama ko'zga aniq, tashlanib, natyurmortning o'zini kurishga xalaqit beradi. SHuni ham hisobga olish kerakki oqish fonda qoramtir narsalar, to'q fonda esa, aksincha oq narsalar ravshan ko'rinadi. ^

Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapirovka) kiritiladi.

Orqa fonga va predmet stoliga solinadigan gazlamaning (chit, surup, shoyi, bahmal, movut) xarakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib qo'yish mumkin.

Gazlama devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma hosil qiladi.

YUqorida aytganimizdan ma'lum bo'ldiki, natyurmort postanovkasini qo'yish jiddiy va ma'suliyatli ishdir. YAxshi qo'yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo'lmaydi, uni old yoki yon tomonidagi qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunli yaxlit guruh bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

O'quv natyurmortdan ijodiy natyurmortni farqi shundaki u hayotga yaqin bo'ladi. Odam ishtirokisiz ham ko'p ma'noni anglatadi.

Misol tariqasida V.Ufimsevning «Garmon» G. Abduraxmonovning «Samovarli natyurmorti»ni olamiz «Garmon» natyurmortida jangchining kundalik «poxod» anjomlari avtomat, maxorkali xalta, gazeta, mis kosacha, buyum to'rva va jangchining hamrohi,-garmon tasvirlangan. Bu natyurmort o'zida odam ishtirokini bildirib eslatib turadi. «Samovarli natyurmort»da esa mavzu kompozitsiya tuzilishiga monand olingan Yorug milliy so'zana fonida qo'yilgan katta xajmdagi samovar va stol ustidagi laganda so'yilgan qovun -tarvuzlar, non, olma- anorlar hamda ularning tekislikda kompozitsiya jihatidan badiiy ifodali joylashishi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Mehmondo'st o'zbek xalqining insonlarga saxiyligi tushunchasi tabiat inomlari orqali o'z aksini topgan.

Shunday qilib, natyurmort tuzish uchun:

A) mavzu tanlash;

B) natyurmort mavzusiga mos keladigan jixozlar, predmetlar, gazlamalar topish;

V)narsalarning shakli, tuzilishi, tusi va ranglarini hisobga olib joylashtirish;

G) predmetlarning hajmdorligini yaqqol ko'rinadigan tarzda yoritish - zarur ekan.

Shularning hammasi birgalikda olinganda natyurmort kompozitsiyasi (qo'yilmasi) deb yuritiladi.

hajm. Har bir buyum o'z hajmiga ega, uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri to'rt- burchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir, egri chiziqlardan tashkil topgan bjiyumlar (shar, kpnus, silindr va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Bu shakllar kontur chiziqlar vositasida chiziladi. Buyum shaklini aks ettirishda kontur chizig'ining ahamiyati katta. Buyumning tuzilishi, nisbatlari va boshqalarni tasvirlashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyum to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lsa, (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmi to'g'ri chiziqlar vositasida chiziladi. Uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajm ellips, aylana shakllar orqali tasvirlanadi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash unga to'g'ri rang berish orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatoga yo'l qo'yadilar. Talabalar kubning hajmini, yorug'-soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun, kubning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda qirrali buyumlar bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan farqlanadi. Kub yoki boshqa qirrali buyumlarning soya qismidagi qirrasi yorug' qismidagi yuzadan tus jihatdan kuchlroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi ellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi, tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi. Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuq, konturda chizihmaydi. Uning turgan holatiga ko'ra yorug' va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

Yevropa realistik tasviriy san'atidan farqli ravishda, sharq tasviriy san'ati o'zining betakrorligi bilan ma'lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan Sulton Husayn Mirzo portretini olaylik. Ushbu portretning hajmdorligi yorug'-soya qonuniyatlariga va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo'lsa-da, lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonini mohirona tasvirlangan.



Qulupnayli natyurmort



Milliy buyumlardan tuzilgan natyurmort



Olmali natyurmort



Bahorgi gullar ishtirokida haryurmort



“XURMO”li natyurmort



Talaba Sailova Nargiza bilan natyurmort bosqichlari haqida suhbat chog`i.

2.3 Natyurmort tuzish. Akvarelda natyurmortni bosqichma-bosqich ishiash

Natyurmort tuzish – ijodiy jarayondir. Bunda rassomning didi va layoqati namoyon bo'ladi. Zero, natyurmort favqulotda tanlangan predmet-lardan tuzilmaydi. Predmetlar mavzu bo'yicha bog'langan va amaliy ahamiyati bilan bir-biriga yaqin bo'lishi kerak. Predmetlar to'plami tabiiylik taassurotini bergandagina, natyurmortning kompozitsiyasi ifodaviyligini saqlab qoladi. Natyurmortni qo'yilishida ham hech qanday sun'iylik, zo'rma-zo'rakilik bo'lmasligi kerak. Masalan, sabzavotlar bilan kitobni yoki gips haykalchani yonma-yon qo'yilsa mazmunan tarqoq va notabiiylik kelib chiqadi. Natyurmortda predmetlar ixtiyorsiz, tasodifiylik bilan joylanmaydi. Har bir predmet boshqalari bilan albatta mazmunan bog'lanishi shart. Ularni shunday vaziyatda qo'yilsinki, ular uchun eng tabiiy holati topilsin, hayotiy, haqqoniy, organik bog'lanishlari ongli ravishda joylashtirilsin.

Natyurmortda predmetlar faqatgina vazifalari, ahamiyatliligi bilangina yaqinligi emas, ular tasvirning estetik ifodaviyligi asosi talablariga ham javob berishi kerak ular: shakl, materiali, fakturasi (sirti), rangi, toni (tusi) va boshqalardir. Ikki yoki undan ortiq o'lchami va shakli bir xil predmetlar bir butun yaxlit tasavvur berolmaydi. Predmetlar o'lchami o'rtasidagi katta farqlilikdan ham qochish kerak. Masalan, kichkina gugurt qutisi, katta ko'za idish yonida umuman sezilmaydi.

Aslida esa, natyurmort kompozitsiyasida katta va kichik, ochlik va to'qlik, dumaloq va tekis yuzali, uzun va qisqalik, yaltiroq va sipoliklarni kontrast qo'yish har bir predmetni shaklini, uning o'lchamlarini, materialini, fakturasini (sirtini) soya-yorug'likla-rini rang-barangligi ifodaviylikni kuchaytiradi, bir xillikdan chetlatadi, vaziyatni jonlantiradi.

Masalan, Shardenning oshxona buyumlaridan tuzilgan natyurmortida, predmetlar shakli, materiali, rangi, vazifasi jixatdan har xil. Piyozi uzunligi olmalarning sharsimonligi, tuxumning ovalsimonligi, mis qozoncha, sopol idish - shakli va o'lchami va rangi jihatidan ham barchasi har xildir. Agarki, tasavvur qiling shu natyurmort faqatgina idishlardangina tuzilgan bo'lganda juda qiziqarsiz, zerikarli taassurot bergan bo'lardi.

Natyurmortda predmetlarni joylashtirish yagona maqsadga bo'ysundirilishi kerak. Natyurmortda kompozitsion markaz bo'lishi kerak. Barcha predmetlar to'plami ichida o'zining mazmun-ahamiyati, o'lchami, shakli, rangi bilan asosiy markaziy predmet bo'lishi shart. Barcha ikkinchi darajalilar ko'rinish jihatidan ham, mazmuni jihatidan ham asosiyga

bo'ysundiriladi. Bu asosiy predmetni rassom predmetlar ichida joylashuvida, rangida, yorug'-soya kontrastlarida ham alohida e'tiborda turadi.

Natyurmortni qanday yoritilganlikda chizish ham (yondan yoki oldidan, kunduzgi yoki kechki) juda ahamiyatlidir. Oldi tomondan yoritish soyalarni juda aniqlashtirib yuboradi, yondan yoritilsa xajmi yuzalarni bo'rttirib ko'rsatadi, orqadan yoritilish esa predmetlarga siluetlik ko'rinishini beradi.

Natyurmortda predmetlar shunday joylanishi zarurki, ular bir-birini to'sib qolmasligi, har biri o'zini xarakterli xususiyatlarini aniq ko'rsatishlari kerak. Buning uchun eng qulay ko'rish nuqtasini tanlash kerak. Ko'rish nuqtasini va gorizont chizig'ini muvaffaqiyatli tanlash natyurmort kompozitsiyasida yuqori ifodaviylikka erishishga olib keladi.

Tarvuzli natyurmortni tuzish jarayonini tahlil qilib ko'ramiz. Natyurmortni ikkita predmetdan tuzish ham mumkin edi Biroq, unga qog'ozga o'rog'lik sabzavotlar ko'shilsa, uning kompozitsiyasi to'liqroq namoyon bo'lardi Bunday kombinatsiyada xilma-xil shakl va rangdagi predmetlarni o'zaro bog'liqligi hosil qilinadi. Agarki, predmetlar to'plamiga, bidon idish yoniga olma qo'yilsa chapgi tonal qism o'ng yoritilganlikka nisbatan muvozanati bir xillashadi. Stolnig bir xildagi yuzasini mato-materiallar qo'shish bilan yo'qotish mumkin. Mabodo stol yuzasida turgan predmetlarni aksi ko'rinib tursa kompozitsiyaning mazmuni yanada boyiydi.

Natyurmortlar dunyosi juda rang-barang va chegarasiz. Biroq har qanday holatda ham xajmlardagi muvozanat, yorug' va to'q dog'larning ritmlarini topish zarur bo'ladi.

Rassom o'z oldiga natyurmort ishlashda dekorativ vazifa qo'yishi ham mumkin. Lekin, bu yerda shu narsani aytish zarurki, natyurmort rangtasvirida eng e'tiborli tomoni predmetlarni meteriallilik va jips tarkibiy holatini tasvirlashdan iboratdir. Bokallarni yaltiroq shishaliligi, metalni yaltiroq sovuqligi, silliq va nafis mevalar – hammasi bizni o'zining o'zligi, o'zgachaligi bilan rom etadi. Xuddi shu xoldagina borliq natyurmortlar bizning qarshimizda g'aroyib go'zalligi bilan, yuza va sirtlarining tabiiyligi va rang-barangligi bilan namoyon bo'ladi. Xissiy idrokning boyligi hayotni to'liq go'zalligini his qilish imkonini beradi

Natyurmortda ranglar o'z xolicha alohida holda harakatda bo'lmay, bir butun to'qlik va rangga bo'ysunadi. Har bir predmetning rangi va yorug'ligi, soyalari, garchi o'zining rangdorligiga ega bo'lsada, baribir bir butunlikka egadir. Ishda aynan barcha bo'yoqlarning huddi manashu yaqinligiga erishish zarur. Barcha ranglar baribir bir umumiylikka ega bo'lishi kerak.

Predmetning har bir yuzasi yagona koloritga bo'ysungan holdagi issiq va sovuq akslari bilan joylanishi va harakatlanishi shart. Faqat shu xoldagina natyurmort tevarak atrofidagi predmetlarning go'zalligini, ularning rang boyliklarini namoyon etadi.

Uzoq muddatli akvarel rangtasviri ishlash jarayonida yosh ijodkorlar akvarel qog'ozi (torshon) yuzasini birdaniga ranglar bilan bo'yab tashlamasliklari kerak.

Buning uchun birinchi navbatda har xil tabiat manzaralarini etyudlar orqali ishlab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi etyud mashqlarini ishlash vaqtida ranglar aralashmasini boshqichma – bosqich amalga oshirgan ma'quldir. Bunda etyud ishlash jarayonini och, yorqin, tiniq ranglar orqali boshlab keyinchalik asta - sekinlik bilan to'q ranglarga o'tganimiz yaxshi natija beradi.

Endi siz bilan birgalikda akvarel rangtasvirining bosqichma – bosqich amalga oshirilishi tartibini natyurmort ishlash jarayonida ko'rib chiqamiz. Avvalo natyurmortni xona ichiga yoruqqa yaqin holda joylashtiramiz.

Qo'yayotgan natyurmortimiz yosh ijodkorlarga qiyinchilik tug'dirmasligi uchun natyurmort tarkibini devor fonidagi mato bilan birga qo'yilgan buyumlar sonini 2tadan 5tagacha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Endigi masala esa natyurmort ishlash jarayoni 3ta bosqichga ya'ni, birinchi bosqich, ikkinchi bosqich va oxirgi, yakuniy bosqichlar yordamida amalga oshiramiz.

1. Birinchi bosqich:

Bu bosqich qo'yilgan natyurmortni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirishdan iborat bo'ladi. Undan keyin qo'yilmadagi (postonovka) buyumlarning hajmi jihatidan bir – biriga bo'lgan katta-kichiklikdagi munosabatlarini aniqlab olamiz. So'ngra e'tiborimizni birinchi va ikkinchi planlarda joylashgan buyumlar, havo perespektivasi hamda matolar taxlamlariga qaratishimiz lozim bo'ladi.

Undan keyin qog'oz yuziga chizilgan natyurmortni fonidagi och va to'q tusdagi ranglar bilan buyum rangini och- to'qligiga qarab tuslab olamiz.



birinchi bosqich

2.Ikkinchi bosqich:

Endi natyurmort ishlash jarayonida birinchi bosqichni tugatib ikkinchi bosqichga o'tamiz. Ikkinchi bosqichdagi ranglarni birinchi bosqichdagiga nisbatan to'q, tiniq va yorqin ranglar orqali to'ldirib natyurmortdagi buyumlarga atrofdan va buyumlarning bir – biridan tushayotgan refleks va boshqa ranglarni hisobga olgan holda issiq – sovuq ranglar orqali umumiy ranglariga e'tibor qilgan holda ishimizni davom ettiramiz.

Ikkinchi bosqichda asosiy ranglardan biri natyurmortdagi buyumlarning birinchi va ikkinchi planlardagi hamda havo va rang perespektivasiga e'tibor qilishimiz zarur. Bu orqali biz birinchi plandagi buyumlarning rangini ikkinchi va uchinchi plandagi buyumlarga nisbatan to'q, tiniq va yorqin qilib olishimiz lozim. Negaki, natyurmortdagi buyumlarni ranglar orqali bir – biridan farqlashimiz va perespektiva qonun- qoidalariga e'tibor qilishimiz lozim.



2 – rasm
ikkinchi bosqich

3. Uchinchi bosqich:

Endi esa birinchi va ikkinchi bosqichlarni tugatgan holda oxirgi, ya'ni uchinchi bosqichni boshlaymiz. Biz siz bilan birinchi va ikkinchi bosqichdagi asosiy vazifalarni bajarib bo'ldik. Qolgan oxirgi vazifa uchinchi bosqichdan iborat bo'ladi. Bu bosqich orqali biz natyurmortni yakuniga yetkazishimiz lozim bo'ladi. Uchinchi bosqichda natyurmortda joylashgan buyumlarni ranglar orqali qismlarga ajratib (detalizatsiya) chiqamiz. Ba'zi ish jarayonida kir bo'lib ketgan ranglarni gubka yoki mo'yqalam yordamida tozalab, qurigandan keyin tiniq ranglar bilan sayqallab (lessirovka) chiqamiz. Bu bilan natyurmortdagi ranglarning umumiy uyg'unligiga (kolorit) erishamiz. Oxirgi ishimizda asosiy e'tibormizni ikkinchi va uchinchi plandagi buyumlarga qaratgan holda bu plandagi buyumlarni sayqallash orqali birinchi plandagi buyumlarni yanada bo'rttirib oldinga olib chiqamiz. Shu bilan natyurmortni oxiriga yetkazib, tugatib qo'yamiz.



3 – rasm **uchinchi bosqich**



UMUMIY XULOSA

Tasviriy san`atda, borliqni aks ettirish o`z-o`zidan paydo bo`lmadi. U inson paydo bo`lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O`rta asrga kelib o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo svilizatsiyasiga o`ziga xos o`ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblari etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning bitiruv malakaviy ishimda O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitish tarixi haqidagi umumiy tushunchalar berish bilan bir qatorda mustaqillik yillarida tasviriy san`atni o`qitilishi haqida ham to`xtalib o`tdim.. Bu mavzuimda, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`tning natyurmort janri shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`uliyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san`atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`llaridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir.

Prezidentiniz I.A.Karimovning “Ma’naviyat, ma’rifatni targ`ib qilish har bir ziyoliyning vijdon isidir” deb ta’kidlaganliklari biz yuosh ziyoliylarni sidqidildan, vijdonan mehtat qilishga undaydi. Men o`z bitiruv malakaviy ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim deb o`ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'qrisida"gi qonuni. -T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti, T.2003.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-
5. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Ma'rifat.-2004,- 21 fevral.
6. S.Abdirasulov,N.Tolipov,N.Oripova. Rang tasvir Toshkent-"O'zbekiston"-2006
7. B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli luqati.Toshkent -1994.
8. A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
9. R.Hasanov."Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi"Toshkent.- "Fan".2004.
10. N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.- "O`qituvchi" –"Ziyo Noshir", 1997.
11. M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent "O`qituvchi", 1995.
12. Abdirasulov S., Tolipov N. "Rangtasvir" Toshkent, 2005
- 13.. S.BULATOV. "Rangshunoslik" 2009
14. Ozod Yusupov. "Rangtavirda akvarel bilan ishlash texnika va texnologiyasi"
15. P.Худайбергенов. "Рангшунослик асослари" – Т.;
16. Boymetov B. "Qalamtasvir asoslari". O'quv qo'llanma. T-t, 1999.
17. Salpinkidi Ya.P. "Rabota nad obnajennoy modelyu". T.1996.
18. Beda G.V. «Osnovyi izobrazitelnoy gramoty». Prosvehenie.
19. Tojiev B. «Qalamtasvir asoslarini urganish». T., 1994

talabasi Sailova Nargiza Xusnitdin qizi“Natyurmort kompozitsiyasi.Murakkab bo`lmagannatyurmort ustida ish olibborish” mavzusidagi bitiruv malaka-viy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Sailova Nargiza Xusnitdin qizining“Natyurmort kompozitsiyasi.Murakkab bo`lmagannatyurmort ustida ish olibborish”” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – o`quvchilar tafakkurini o`stirish muammosining yechimini topishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 50 sahifani tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligiga talaba, oddiy natyurmort kompozitsiyasi haqidagi tushunchasini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida oddiy natyurmort kompozitsiyasi imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi va umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilariga, oddiy natyurmort kompozitsiyasining omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan. Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil- pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, amaliy san`atni o`qitish tarixi usullaridan unumli foydalana bilgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda bitiruv malakaviy ishi tadqiqotchi Sailova Nargiza Xusnitdin qizi tomonidan ayrim kamchiliklar ham uchraydi, jumladan:

1. Bitiruv malakaviy ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 14, 17-betlar.

2. Bitiruv malakaviy ishi matnida Natyurmort kompozitsiyasi.Murakkab bo`lmagan natyurmort ustida ish olibborish to`g`risida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar bitiruv malakaviy ishining ilmiy qimmatiga ta`sir ko`rsatmaydi.

Bitiruv malakaviy ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi- Sailova Nargiza Xusnitdin qizi–“tasviriy

san`at va muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Ilmiy rahbar:

s.n. dotsent **Q.Jumayev**

Navoiy davlat pedagogika instituti pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi Soylova Nargiza Xusnitdin qizining “Natyurmort kompozitsiyasi. Murakkab bo`lmagan natyurmort ustida ish olib borish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bitiruvchi kurs talabasi Sailova Nargiza Xusnitdin qizining “Natyurmort kompozitsiyasi. Murakkab bo`lmagan natyurmort ustida ish olib borish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o`rta maktablarda va kollejlarda Natyurmort kompozitsiyasi. Murakkab bo`lmagan natyurmortlar ishlashning rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olgan holda yozilganligi bilan bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo`lib borishi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 50 sahifani tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligiga talaba, rangtasvir fanini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab va kollej o`quvchilarida tasviriy san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi, hamda umumiy o`rta ta`lim maktab va kollej o`quvchilarida natyurmort ishlashning bosqichlari, pedagogik asoslari, ishlash uslublariga e`tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, amaliy san`at metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda bitiruv malakaviy ishi tadqiqotchi Soylova Nargiza Xusnitdin qizi tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo`l qo`yilgan, jumladan:

1. Nazarimizda, amaliy san`at o`qitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib o`tilsa, maqsadga muvofiq bo`lardi.

2. Bitiruv malakaviy ishi matnida ayrim texnik xatolar uchraydi;

Umuman, yuqorida bildirilgan noaniqliklar tadqiqotchi Soylova Nargiza Xusnitdin qizining o`tkazgan tadqiqotning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi,

Bitiruv malakaviy ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi- Sailova Nargiza Xusnitdin qizi – “tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” yo`nalishi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Navoiy pedagogika va xizmat ko`rsatish kolleji
o`qituvchisi:_____Z.Abdiyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`qrisida”gi qonuni. -T., 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-
5. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Ma’rifat.-2004,- 21 fevral.
6. S.Abdirasulov,N.Tolipov,N.Oripova. Rang tasvir Toshkent-“O`zbekiston”-2006
7. B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli luqati.Toshkent -1994.
8. A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
9. R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-“Fan”.2004.
10. N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
11. M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
12. Abdirasulov S., Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent, 2005
- 13.. S.BULATOV. “Rangshunoslik” 2009
14. Ozod Yusupov. “Rangtavirda akvarel bilan ishlash texnika va texnologiyasi”
15. P.Худайбергенов. “Рангшунослик асослари” – Т.;
16. Boymetov B. “Qalamtasvir asoslari”. O’quv qo’llanma. T-t, 1999.
17. Salpinkidi Ya.P. “Rabota nad obnajennoy modelyu”. T.1996.
18. Beda G.V. «Osnovyi izobrazitelnoy gramoty». Prosvehenie.
19. Tojiev B. «Qalamtasvir asoslarini urganish». T., 1994

